

**SHIMOLIY AFRIKA VA YAQIN SHARQ DAVLATLARIDA SODIR
BO'LGAN "RANGLI INQILOB" LARNI MARKAZIY OSIYO
MINTAQASIGA NISBATAN QIYOSIY TAHLILI**

Tuxtaxunov Dilshod Shakirjanovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi tinglovchisi mayor*

Annotatsiya: *Bu maqolada Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida 2010-2014-yillarda sodir bo'lgan "Arab bahori" deb nom olgan inqilobiy harakatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan qiyosiy tahlili. "Rangli inqilob"larni keltirib chiqaruvchi omillar hamda ularning oldini olish chora tadbirlarini amalga oshirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatib o'tgan.*

Kalit so'zlar: *Rangli inqilob, omil, davlat, taxdidlar, xavfsizlik, texnologiya, geosiyosiy, NNT (nodavlat notijorat tashkilotlar).*

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ революционных движений на Ближнем Востоке и в Северной Африке, известных как "арабская весна", имевших место в 2010-2014 гг., в сторону Центрально-Азиатского региона. Он подчеркнул необходимость реализации факторов, приводящих к "цветным революциям", и мер по их предотвращению.

Ключевые слова: Цветная революция, фактор, государство, угрозы, безопасность, технологии, geopolитические, НПО (неправительственные организации).

Abstract: In this article, a comparative analysis of the revolutionary movements in the Middle East and North Africa, known as the "Arab Spring", which took place in 2010-2014, towards the Central Asian region. He emphasized the need to implement the factors that lead to "color revolutions" and measures to prevent them.

Keywords: Color revolution, factor, government, threats, security, technology, geopolitical, NGO (non-governmental organizations).

So'nggi yillarda dunyoda kechayotgan global siyosiy jarayonlar, tashqi kuchlarning o'z maqsadlari yo'lida olib borayotgan geosiyosiy o'yinlari doirasida inqiloblarni amalga oshirilayotganligi nafaqat davlatlar, balki butun mintaqaga xavfsizligiga tahdid tug'dirmoqda.

Ana shunday taxdiddardan biri - Rangli inqiloblar bo'lib, ularni sodir etish quroli sifatida fuqarolar, ijtimoiy institutlardan foydalanishga bo'lgan turli

harakatlar tobora avj olmoqda. Buni Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida 2010-2014-yillarda sodir bo'lgan "Arab bahori" deb nom olgan inqilobiy harakatlarda ko'rsak bo'ladi. Bu "inqiloblar" bir qancha mamlakatlarda siyosiy tuzumning o'zgarishi yoki umuman tizimning yo'qolishiga olib keldi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹³: "Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidilar bugungi kunda muayyan bir yirik qurolli mojaro shaklida emas, balki harbiy-siyosiy, iqtisodiy, ekologik va inson resurslariga ta'sir qiluvchi hodisalarning salbiy, tanazzulga olib boruvchi oqibatlari shaklida namoyon bo'lish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda" – deb ta'kidlab o'tgan.

Hozirgi kunga qadar keng ilmiy doirada arab mamlakatlarida bo'lgan inqiloblar tabiiy ravishda sodir bo'lganligi yoki uyuştirilganligi yuzasidan bahslar mavjud. Lekin inqiloblar hamma mamlakatlarda deyarli bir vaqtida boshlanganligi, inqiloblarni o'z-o'zidan sodir bo'lganlik ehtimolini kamaytiradi. Binobarin, "Rangli inqilob"lar texnologiyasida albatta "inqilobiy ko'chib o'tish" elementi bo'lib, bunga ko'ra bir mamlakatda bo'layotgan "inqilob", ikkinchi mamlakatda boshlanishiga turtki bo'lishi, "domino tamoyili"ga mos keladi.

Misol uchun, domino tamoyili bu - bir-biriga yaqin bir nechta mamlakatlarda yoki bir mintaqada beqarorlikni vujudga keltirish.

Agar Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq davlatlarida sodir bo'lgan "Rangli inqiloblar"ni tahlil qilsak, bu yerda bo'lib o'tgan "Rangli inqiloblar" Markaziy Osiyo mamlakatlarida sodir bo'lgan "Rangli inqilob"larga o'xshaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirda "Rangli inqilob"larni amalga oshirishning yangi bosqichiga o'tilgan. Ya'ni avvalgiday bir mamlakatda emas, "domino tamoyili" asosida bir-biriga yaqin bir nechta mamlakatlarda yoki bir mintaqada beqarorlikni vujudga keltirish ishlari boshlangan. Bu xavfdan Markaziy Osiyo mintaqasi ham xoli emas, albatta.

Barchamizga ma'lumki, "Rangli inqilob"larni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruriy va yetarli sharoit mavjud bo'lishi lozim.

Zaruriy sharoit mamlakatda amaldagi hukumatning inqirozi bilan keluvchi siyosiy beqarorlikning mavjud bo'lishidir. Agar mamlakatda siyosiy vaziyat barqaror bo'lsa, uni sun'iy ravishda beqarorlashtirish lozim bo'ladi.

Yetarli sharoit uyushgan (maxsus tarmoqlar shaklida) norozilik harakatining mavjudligi.

Ushbu zaruriy va yetarli sharoit yaratishga kerakli omillar mavjud bo'lishi kerak. Biz turli mamlakatlarda sodir bo'lgan "Rangli inqilob"larni tahlil qilib

¹³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. 379-6.

chiquqan holda quyidagi omillarni (omillar to'liq ko'rsatilganligiga da'vo qilmagan holda) ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1. Ishsizlik darajasining yuqoriligi. Bunga Tunis, Misr, Suriya va Qirg'izistonda bo'lib o'tgan "Rangli inqilob"larni misol qilib keltirsak bo'ladı. Tunisda inqilob yuz berishidan avval aholining 30-50 foizi ishsizlarga aylangan va ularning aksariyatini yoshlar tashkil qilgan. Mazkur mamlakatlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi "Rangli inqilob"ning kelib chiqishida asosiy omillardan biri bo'lgan¹⁴.

Shuningdek, Oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining oshib ketishi. "Rangli inqilob"lar ro'y bergan mamlakatlarda, ayniqsa, oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 25-30 foiz atrofida bo'lgan. Jumladan, 2003-yil "Atirgullar inqilobi" amalga oshirilgan davrda Gruziyada 20-24 yoshli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi 27,5 foizni tashkil etgan, Shuningdek, o'sha vaqtida oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 37,5 foizni ko'rsatgan. Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'lgan "Arab bahori" inqilobi davridagi iqtisodiy holatni kuzatadigan bo'lsak, Tunisda oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 25 foizni, Liviyada 26,4 foiz hamda Misrda esa 27 foizni tashkil etgan. Ushbu holatdan foydalangan tashqi kuchlar yoshlar o'rtasida turli ko'rinishdagi yashirin guruuhlar tashkil etishga erishgan. Bundan tashqari, ularni xorijdan moliyalashtiriladigan NNT tarkibiga keng jalg etilgan¹⁵.

2. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy axvolining yomonlashuvi. Gruziyada 2003-yilda aholi daromadi 50 foizga tushib ketgan¹⁶. Ushbu omil Qirg'iziston, Misrda bo'lib o'tgan "Rangli inqilob"larda ham kuzatilgan.

3. Davlatda korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning o'sishi. Tunisdagi voqealarning rivojlanishiga davlat boshqaruvida korrupsiya va urug'-aymoqchilikning rivojlanganligi ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, bank, tijorat, turizm sohalari prezidentning ikkinchi xotinining oilasi - Trabelsi urug'i tomonidan boshqarilgan¹⁷. "Transparency International" tomonidan 180 ta davlat o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotiga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlarida korrupsiya darajasi reytingga ko'ra, Qozog'iston 101-o'rin, Qirg'iziston 140-

¹⁴ Лабинская И. События в Северной Африке и на Ближнем Востоке: причины и следствия //Мировая экономика и международные отношения (Москва, ИМЭМО). 2011. № 7. - С. 11-25; № 8. - С. 52-66.

¹⁵ Карпович О.Г., Манойло А.В., Наумов А.О. Противодействие технологиям цветных революций в молодежной среде. Кандидат. - М.: 2015. - 98 с.

¹⁶ Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Анышина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева. — М.: АНО ЦСОиП, 2015. – С. 75.

¹⁷ Исаков А. «Араб баҳори»даги ташки кучлар омили (Тунис, Миср, Ливия ва Суря мисолида). Магистрлик дисс. - Т.СТИБОМ: 2013. – Б. 32.

o'rin, Tojikiston 150-o'rin, Turkmaniston 167-o'rin hamda O'zbekiston 126-o'rinni egallagan¹⁸.

4. Mamlakat ichkarisida NNTlar faoliyatining kengayishi. Bu omil ham "Rangli inqilob"lar sodir bo'lgan deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Chunki mamlakat ichkarisida "Rangli inqilob" larni tashkillashtirish, moliyalashtirish kabi ishlar aynan NNTlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, arab davlatlarida, xorijiy NNTlar tomonidan 2009-2010-yillarda demokratiyani targ'ib qilish bo'yicha Misrda 23 ta, Falastinda 21 ta, Yamanda 13 ta, Iordaniyada 10 ta, Livanda 8 ta, Tunisda 3 ta, Liviyyada 3 ta, Suriyada 3 ta, Jazoirda 3 ta va Quvaytda 1 ta NNT tashkil etilgan¹⁹. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda Markaziy Osiyo davlatlarida Nodavlat notijorat tashkilotlari sektori hajmini aniqlash qiyin. Bir hisob-kitobga ko'ra, eng ko'p nodavlat notijorat tashkilotlari Qirg'izistonda 1001 ta, keyingi o'rirlarda Qozog'iston va Tojikiston mos ravishda 699 va 595, keyingi o'rirlarda O'zbekiston 465 va Turkmaniston 138 turadi.²⁰ Shulardan Qozog'iston va O'zbekistonda NNTlarni faoliyatini tartibga solish bo'yicha normativ xujjatlar chiqarilib, ularning normal faoliyati tartibga solingan.

5. Aholi o'rtasida diniy ekstremistik g'oyalarning keng tarqalishi. Misr, Suriya, Liviya, Tunis, Yaman davlatlarida bo'lgan "Rangli inqilob"larda "Musulmon birodarlari", "Hizbulloh", "Al-Qoida" va boshqa diniy ekstremistik, terroristik tashkilotlari faol harakat olib borgan. Hattoki Misrda Mursi boshchiligidagi "Musulmon birodarlari" hokimiyat tepasiga kelgan. Tunisda 2011-yilning 23 oktyabr kuni navbatdagi parlament saylovlarida 217 ta deputatlik o'rnidan 90 ta o'rinni islom partiyasi hisoblangan "An-Naxda" (qayta tug'ilish) partiyasi qo'lga kiritgan²¹.

Bishkeklik yozuvchi, sharqshunos, xavfsizlik masalalari bo'yicha taniqli ekspert Begijon Ahmedov bergan ma'lumotlariga ko'ra "Markaziy Osiyo o'lkalarida turli radikal oqimlar yoshlari orasida o'z g'oyalalarini faol targ'ibot qilayotgani, DAISH kabi ekstremistik, terroristik tashkilotlar internet orqali o'z saflariga chorlayotgani - bu bor gap", - deydi ekspert. Bundan tashqari rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ISHID saflarida kamida yetti yuz nafar Qirg'iziston fuqarosi borligini ta'kidlab o'tgan²².

6. Turli xil etnik guruhlar o'rtasida konfliktlarni mavjudligi. Qirg'izistonda qirg'izlar bilan o'zbeklar o'rtasidagi konfliktlarni misol sifatida keltirish o'rinnlidir. 2010-yilda Qirg'izistonning O'sh viloyatida etnik qirg'izlar va

¹⁸ Transparency International. Corruption Perceptions Index 2022. Berlin: Transparency International.

¹⁹ Каракин В. Политика США на Ближнем и Среднем Востоке: новые подходы и застарелые проблемы //Центральная Азия и Кавказ (Лулеа, Швеция). № 4.2010. - С. 90-99.

²⁰ <http://www.cango.net.kg/>, <https://www.alliancemagazine.org/feature/ngos-in-central-asia/>

²¹ Егоров г. Исламисты взяли Тунис. <http://www.rg.ru/2011/10/26/tunis.html>

²² <https://www.amerikaovozi.com/a/central-asia-extremism/3780298.html>

o‘zbeklar o‘rtasida konflikt yuzaga kelgan va ushbu voqealari natijasida 418 kishi vafot etdi (o‘zbeklar 266 kishi, qirg‘izlar 104 kishi) hamda 1900 ga yaqin kishi jarohatlandi (1097 qirg‘izlar va 763 o‘zbeklar)²³.

7. Diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasidagi munosabatning yomonlashuvi. Bunga Suriyadagi Shia mazhabiga kiruvchi “alavid”lar bilan sunniylar va Yamandagi “xuzit”lar bilan sunniylar o‘rtasidagi keskinlikni yaqqol misol sifatida keltirsak bo‘ladi. Qirg‘izistonda ham ushbu holatni kuzatish mumkin, lekin bu omil u yerda Suriya va Yamandagi kabi yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Hozirda Markaziy Osiyo davlatlarida 100 dan ortiq diniy konfessiyalar bo‘lib, shulardan Qirg‘iziston va Tojikistondagi diniy konfessiyalar o‘rtasida keskin munosabatlar mavjud.

8. Siyosiy elita o‘rtasida qarama-qarshilikning mavjudligi. Bu omilni biz Qirg‘izistonda bo‘lgan “Rangli inqilob”larda “shimollik”lar va “janublik”lar o‘rtasida kechgan kurash da yaqqol kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Liviyyada M.Kaddafi ma’muriyatining boshqaruvdagi asosiy kamchiligi siyosiy raqobatni yuzaga kelishiga imkon bermaganligi, ayrim hollarda esa qarama-qarshi fikrli va turli urug‘dan bo‘lgan odamlarni boshqaruv lavozimlariga tayinlaganligidir²⁴.

9. OAV nazoratini xususiy sektor yoki chet el investorlari qo‘liga o‘tib ketishi. Bu omilni Qirg‘iziston, Suriya, Tunis kabi davlatlarda kuzatishimiz mumkin. Qirg‘izistonda 2000-yilda Aleksandr Kim tomonidan tashkil qilingan xususiy “MSN” gazetasi (“Moya stolitsa - novosti”), “Rangli inqilob”larni kelib chiqishida muhim rol o‘ynagan (2004-yilda AQSH tomonidan 70 ming AQSH dollari miqdorida grant olgan).²⁵ Bu omil ham hozirgi kunda Qirg‘izistonda kuzatiladi. “Agim”, “Kirgiz ruhu”, “Apta” va “Aykin” kabi hususiy muharrirlik tashkilotlarining mavjudligi va ularning chet el tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilib turishi buning yaqqol isbotidir.

10. Hokimiyat vakillari va yoshlar dunyoqarashining mos kelmasligi. 2011-2012-yillarda bo‘lib o‘tgan “Arab bahori”da ko‘p arab davlatlarida ushbu holat kuzatilgan. Chunki ko‘pchilik yoshlar oliy ma’lumotli bo‘lib, aksariyati chet mamlakatlarda tahsil olib kelgan. Xususan, 2001-yil sentyabr voqealaridan so‘ng, AQSH ma’muriyati tomonidan katta miqdorda federal byudjetdan pul mablag‘lari ajratilib, arab mamlakatlarida 350 dan ortiq ta’lim,

²³ Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Аньшина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева. — М.: АНОЦСОиП, 2015. — С. 110.

²⁴ Егорин А.З. Маумар Каддафи. — Москва: ИВ РАН, 2009. — С. 464.

²⁵ Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Аньшина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева. — М.: АНОЦСОиП, 2015. — С. 98.

madaniyat, demokratiyani targ'ib qilish dasturlari yaratilgan hamda ma'lumotlar tarqatuvchi bazalar tashkil etilib, AQSH siyosatiga tarafdror fuqarolar qatlamini yaratish bo'yicha ishlar olib borilgan. Ushbu dasturlar yagona "Yaqin Sharqda hamkorlikni qo'llab quvvatlash tashabbusi" dasturiga birlashtirilib, ushbu dasturlar faoliyati AQSH NNTlari orqali amalga oshirilgan. Ularning faoliyati AQSH Davlat departamenti tomonidan nazorat qilingan²⁶. Oxirgi 5 yil ichida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan 36 mingdan ortiq yoshlar grin-kard "green-card" orqali aynan AQSHga ketishgan. 2010-2014-yillarda bo'lib o'tgan "Arab bahori"da faol ishtirok etganlarning ko'pchiligi oliy ma'lumotli yoshlar bo'lib, ular har xil grantlar orqali aynan AQSHda tahsil olib kelgan va bu omil yoshlar bilan amaldagi hukumat vakillari o'rtasidagi dunyoqarashning keskin farq qilishiga olib kelgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari oxirgi 5 yil ichida 22588 grin-kartani qo'lga kiritib, MDH davlatlari orasida AQSHga ko'chib o'tgan immigrantlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan birini qayd etgan. Aniqlik kiritilishicha, ma'lumotlar 2013-2017-yillar tahlili natijasida olingan. Qozog'istonidan 6105 immigrant Qo'shma Shtatlarga ketgan. Qirg'iziston Respublikasi fuqarolari 3581 grin-karta olishgan. Tojikistonlik immigrantlar oqimi bir necha o'n yillardan beri bir maromda saqlanib kelmoqda - yiliga 552 kishi. MDH mamlakatlari orasida eng «yopiq» hisoblangan Turkmanistondan bor-yo'g'i 1150 kishi Amerikaga chiqishga muvaffaq bo'lgan. Bu eng past ko'rsatkichdir²⁷.

11. Aholi o'rtasida hokimiyatdan norozi bo'lgan qatlam vakillarini ko'payishi. Bu omil deyarli barcha "Rangli inqilob"larda kuzatiladi. Chunki "Rangli inqilob"larni o'ziga xos tomoni, siyosiy texnologlar avval ommani hokimiyatga qarshi qo'yib, so'ng shu omma qo'li bilan hokimiyatni ag'darishga harakat qiladi.

12. Transchegaraviy tahdidlarning mavjud ekanligi. Narkotrafik, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurov savdosi kabi transchegaraviy tahdidlar Markaziy Osiyoda ham Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqalarida ham yaqqol kuzatiladigan hodisadir. Narkotrafik, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurov savdosi kabi transchegaraviy tahdidlar Markaziy Osiyo mintaqasida yaqqol kuzatiladigan hodisadir.

²⁶ Долгов Б.В. Арабский мир в начале XXI в.: между демократией и исламизмом // Восток-Oriens (Москва, ИВ РАН). 2009. № 5. - С. 89-100.

²⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Узбеки_в_США

13. Mintaqada notinch mamlakatning mavjudligi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada bo'lgan "Rangli inqilob"larda Falastin-Isroil muammosining bir necha yillardan buyon yechilmay kelayotganligi bu mintaqaning beqarorlashuviga olib kelgan omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

14. Mamlakat savdo yo'llari o'tgan strategik mintaqada joylashganligi. Bu omilni Misr, Liviya, Tunisda kuzatish mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy bilan Evropa va Afrika bilan bog'lovchi strategik mintqa hisoblanganligi uchun bu mintaqadagi Qirg'izistonda bo'lgan "Rangli inqilob"da bu omil bo'lganligini ta'kidlasak bo'ladi.

15. Qudratli davlatlarning manfaatlari to'qnashuvining keskinlashishi. Bu omil, Shubhasiz, barcha davlatlarda sodir bo'lgan "Rangli inqilob"larda kuzatish mumkin. Chunki tanlangan mamlakatda manfaat bo'lmasa, bu yerda harakat qilishga ham xojat bo'lmaydi.

16. Mamlakatda tabiiy qazilma boyliklarni mavjud ekanligi. Buni Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida yaqqol kuzatish mumkin. Ushbu omil tashqi kuchlarning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Liviya Afrikada katta miqdordagi neft zaxirasiga ega davlat hisoblanib, neft ishlab chiqarish xajmi bo'yicha mintaqada uchinchi o'rinda bo'lgan²⁸.

O'zbekistonda 100 dan ortiq mineral resurs turlari aniqlangan bo'lib, mavjud umumiy mineral resurslar 3,3 trln dollarga baholangan. Mamlakat oltin zahirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uni qazib olish bo'yicha yettinchi, mis zaxirasi bo'yicha o'ninchi, uran zaxirasi bo'yicha yettinchi, uni ishlab chiqarish bo'yicha o'n birinchi o'rinda turadi.

Tojikiston gidroenergoresurslarga boy bo'lib, suv zahirasi bo'yicha dunyoda sakkizinchi o'rinda, MDH mamlakatlari ichida ikkinchi o'rinda turadi.

Turkmaniston dunyoda energoresurs ishlab chiqaruvchi yirik davlatlardan biri hisoblanadi. Turkmaniston tabiiy gaz zaxirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi²⁹.

Qirg'iziston yetarli tabiiy boylik zaxiralari ega bo'lmasada, u katta gidroenergiya quvvatiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining katta tabiiy boylik zaxiralari va imkoniyatlari bu mintaqaga asosiy geosiyosiy kuchlarning qiziqishini uyg'otishi tabiiy.

Bundan ko'rinib turibdiki, Shu kungacha dunyoda bo'lib o'tgan "Rangli inqilob"larni keltirib chiqaruvchi 16 ta omillardan ko'plari Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud.

²⁸ Гусаров В.И. Северная Африка: полвека независимого развития. – М.: ИА РАН, 2008. – 152 с.

²⁹ Пономарева Е.Г. Рудов Г.А. "Принцип домино": мировая политика на рубеже веков. - М.Катон:2016. – С. 207-210.

Yuqorida biz shu kungacha dunyoda bo'lib o'tgan "Rangli inqilob"larni tahlil qilgan holda uni keltirib chiqaruvchi 16 ta omillarni (ushbu omillar to'liqliligiga da'vo qilmagan holda) sanab o'tdik. Shu omillarning ko'plari hozirda Markaziy Osiyo mintaqasida mavjudligining o'zi, mintaqaga mamlakatlari umumiy xavfsizlik, xavfsizlikning bo'linmasligi qoidasidan kelib chiqib, ushbu hodisaga jiddiy e'tibor qaratish va "Rangli inqilob"larning oldini olish chora tadbirlarini amalga oshirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashda mintaqaga mamlakatlari yuqorida keltirilgan omillarni inobatga olgan holda "Rangli inqilob"larni kelib chiqishini oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, omillarni ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rishlari zarurdir.

"Rangli inqilob"larni oldini olishda, avvalo, uning maqsadini belgilab beruvchi "Boshqariladigan xaos" konsepsiyasini o'rganish, Shuningdek, xozirgi xalqaro munosabatlar xususiyatini bilish, xalqaro maydonda faol harakat qilayotgan yetakchi davlatlar manfaatlarini anglash lozim bo'ladi.

Shulardan kelib chiqib, O'zbekiston xalqaro maydonda o'z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun yuqorida ta'kidlangan shart-sharoitlar majmuuni ta'minlash va "Rangli inqilob"larni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.